

O‘ZBEKISTON VA TURKIYA O‘RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA VA KO‘P TOMONLAMA MUNOSABATLAR

Javlon Abdullaev

Tadqiqotchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston-Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy va zamonaviy jihatlari, ikki va ko‘p tomonlama aloqalari, mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirishdagi rollari o‘rganilgan. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘zaro ishonch va hamkorlikni takomillashtirish yo‘llari ochib berishga harakat qilingan. Savdo shartnomalari va madaniy almashinuvlar kabi asosiy tashabbuslar barqarorlik va rivojlanishni ta‘minlashi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkiya, Turkiy davlatlar tashkiloti, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik.

Kirish va tadqiqotning dolzarbligi / Введение и актуальность исследования / Introduction and relevance of the research:

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ko‘p tomonlama munosabatlar yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Binobarin, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va qardoshlik rishtalariga asoslangan keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish har ikki davlat tashqi siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. “Biz hamkorlikning yangi, yanada mustahkam ko‘priklarini qurayapmiz. Birgalikda xalqlarimiz o‘rtasidagi qardoshlikning tarixiy rishtalariga asoslangan turk-o‘zbek munosabatlarini davom ettirish, bu — bizning tarix oldidagi mas‘uliyatimizdir”¹.

O‘zbekiston va Turkiyani madaniy va tarixiy asoslar o‘xshash til, uyqash an‘ana va tutumlar, yagona din va madaniy aloqalar bog‘lab turadi. Ikki xalq o‘z tarixi va madaniyati bilan o‘tmish taraqqiyotdan tortib, hozirgi rivojlanish bosqichigacha o‘zaro aloqalarni muttasil shakllantirib, rivojlantirib kelganligini ko‘rish mumkin. Har ikki davlat bir-biriga dastakchi va bir-biriga bog‘liklik jihatlari juda ko‘p. Birgalikda ikki

davlat ko‘plab yutuq va muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Tadqiqot usullari / Методы исследования / Research methods: Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tarixiylik kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan shuningdek, O‘zbekiston va Turkiya munosabatlariga bog‘liq rasmiy bayonnomalar va shartnomalar, soha tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari / Результаты исследования / Research results:

O‘zbekiston-Turkiya munosabatlari Turkiyaning 1991 yil 16 dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olishi bilan ko‘tarinki ruhda boshlandi. Dastlab ikki tomonlama munosabatlar birodarlik ruhida yo‘lga qo‘yildi va ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlariga erishildi. 1992 yil aprelda Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993 yil yanvarda esa O‘zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. Istanbulda davlatimizning bosh konsulxonasi ochildi. 1996 yilga kelib mamlakatlarimiz o‘rtasida Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan. O‘tgan uch yilda aloqalar strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Oliy darajadagi uchrashuv va muzokarlarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Bu ikki mamlakat ishbilarmon doiralari uchun qulay sharoit yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, qo‘shma kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda o‘z aksini topmoqda¹. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston va Turkiya aviakompaniyalari ikki davlatni bog‘lovchi reyslarni amalga oshira boshladi, O‘zbekistonda turk maktablari ochilib, o‘zbekistonlik talabalar Turkiyadagi universitetlarda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar².

Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar jadal rivojlanar ekan, turk maktablarining (FETO nomli) siyosiy va diniy ta’limotlari, 1999-yilgi Toshkentdagi portlashlar va uni amalga oshirgan O‘zbekiston islom harakati diniy ekstremist va terrorist harakatlarning vakillari va siyosiy muholifat guruhlarining Istanbulda uchrashuvlar qilishi³, 2005-yil

¹ Холикулов Р. Тўракулов В. Ўзбекистон ва Туркия ўртасидаги савдо иқтисодий ва маданий алоқалар. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 1 Issue 3. 2020.

² Tolipov F. Uzbekistan-Turkey: Pending the Outcomes of Strategic Relationships. CABAR.asia.2020. <https://cabar.asia/en/uzbekistan-has-opened-up-to-the-world-has-the-country-been-closed>

³ Görkem Dirik, “From Hostility to Fraternity: Turkish-Uzbek Relations”, Daily Sabah, 21 June 2019. <https://www.dailysabah.com/op-ed/2019/06/21/from-hostility-to-fraternity-turkish-uzbek-relations>

may oyida Andijonda ro‘y bergan qurolli guruhlarning isyonlari natijasida inson haqlari masalasida O‘zbekistonga qarshi BMT va Yevropa Ittifoqining rezolyutsiyalarining Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ikki davlat o‘rtasidagi har qanday siyosiy shuningdek, savdo munosabatlarini jiddiy ma’noda sovuqlashtirdi. Tadqiqotchi Avatkovning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha paytda Turkiya prezidenti Abdullah Gulning Toshkentga rasmiy tashrifi bekor qilingan⁴. Shu bilan, O‘zbekiston Turkiya tashabbusidagi ko‘plab loyihalarda ishtirok etmay qo‘ydi. Shulardan biri turkiy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 1992-yildan boshlangan turkiy tilli davlatlarning sammitlarida, 2009-yildagi Naxichevan shartnomasi asosida tashkil etilgan Turkiy Kengash tashkilotida O‘zbekiston 2017-yilgacha faoliyati ko‘rsatmadi.

Shunday bo‘lsada, savdo aloqalari va TIKAning faoliyati O‘zbekistonda davom ettdi. O‘tgan davrda TIKA O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, ta’lim, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, madaniy hamkorlik va infratuzilma xizmatlari kabi ko‘plab sohalarda 900 ga yaqin loyiha va faoliyatni amalga oshirdi⁵. O‘zaro savdo 1992 yildan 2017 yilgacha keskin o‘shish kuzatilgan. Turkiyaning O‘zbekistonga eksporti 1148 foizga, Turkiyaning O‘zbekistondan importi esa 2017 yilda 1992 yilga nisbatan 3817 foizga o‘sdi⁶. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1994, 2000 va 2009-yillardagi iqtisodiy inqirozlar Turkiyaning tashqi savdosiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston va Turkiya savdo aloqalaridagi salbiy ko‘rsatkichlar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlardagi sovuqchilik bilan emas, balki dunyodagi va Turkiyadagi moliyaviy inqirozlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

1-jadval. O‘zbekiston-Turkiya savdo munosabatlari dinamikasi (mln. dollar)

Yillar	O‘zbekistondan eksport	Turkiyadan import	Savdo balansi
--------	------------------------	-------------------	---------------

⁴ Аватков В.В, Внешнеполитический курс Турецкой Республики в рамках современной системы международных отношений. Дисс. док. пол. наук. – Москва, 2021. – С. 132.

⁵ Özbekistan – Taşkent Program Koordinasyon Ofisi, <https://tika.gov.tr/office/ozbekistan-taskent-program-koordinasyon-ofisi/> (Ma’lumotga ulanish: 06.05.2025)

⁶ Şimşek N. & Kurt A.S. Evaluation of the Economic Relations between Turkey and Uzbekistan. PERCEPTIONS, Spring-Summer 2021 Volume XXVI Number 1, p.135.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 05. May 2025

1992	21,019,268	54,483,118	– 33,463,850
1996	56,477,976	229,793,568	– 173,315,592
2000	85,794,461	82,129,921	3,664,540
2006	415,840,964	175,995,482	239,845,482
2010	861,373,489	282,666,367	578,707,122
2015	711,555,111	488,653,539	222,901,572
2017	823,274,751	680,104,359	143,170,392

Manba: Şimşek N. & Kurt A.S. Evaluation of the Economic Relations between Turkey and Uzbekistan. PERCEPTIONS, Spring-Summer 2021 Volume XXVI Number 1, 121-151.

1-jadvalda ko‘rib turibmizki, 90-yillarda ikki davlat o‘rtasidagi savdoda Turkiya ko‘proq ekport qilgan va foyda ko‘rgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab O‘zbekiston ko‘proq eksport qilib, ijobiy savdo balansiga ega bo‘lgan.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan Turkiya-O‘zbekiston munosabatlarida yangi davr boshlandi. 2016 yil noyabrda Turkiya Prezidenti R.T. Erdo‘g‘anning Samarqandga tashrifi chog‘ida O‘zbekiston Prezidenti vazifasini bajarib turgan Sh.Mirziyoyev bilan uchrashuvi O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarini jonlantirdi. Uzoq yillik tanaffusdan so‘ng 2017-yil oktyabrda O‘zbekiston rahbari Turkiyaga tashrif buyurdi. Shu yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo‘yicha Parlamentlararo guruhi tashkil etildi. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning 2018-yil bahoridagi yurtimizga davlat tashrifi ham O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi endilikda strategik bo‘lgan munosabatlarni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynadi⁷.

⁷ Obid Hakimov, O‘zbekiston – Turkiya: Tarix va islohotlar mushtarakligi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 63 (585), 2022-yil 30-mart.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

Savdo aloqalar ham jadal sur'atlarda ortdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda 1 milliard 242 million dollar bo'lgan o'zaro savdo hajmi 2020-yilda 2 milliard 101 million dollarga, 2021-yilda esa 3 milliard 645 million dollarga yetdi⁸.

O'zbekiston-Turkiya munosabatlari nafaqat ikki tomonlama balki ko'p tomonlama formatlarda ham rivojlandi. Bunda Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT), Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, TDTning o'rni ikki davlatni munosabatlarida katta ahamiyatga ega. TDT bugun Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobatda muhim ishtirokchiga aylanib bormoqda. TDT a'zo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti 2024-yil holatiga ko'ra 2,1 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa jahon iqtisodiyotidagi ulushining 2,2 foiziga teng⁹. Aholisi 155,1 million kishidan iborat bo'lgan tashkilotga a'zo davlatlarning 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra umumiy savdo aylanmasi 536,08 milliard dollarni tashkil qildi, bu jahon savdo aylanmasining 2,5 foiziga to'g'ri kelgandi¹⁰. Bu a'zo davlatlar o'rtasida turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa madaniy yaqinlik o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish asoslarini yaratadi. Zero tashkilot turkiy xalqlarning umumiy merosini asrash va rivojlantirish maqsadida bir qator tashkilotlar va platformalar tashkil etdi. Xalqaro Turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY), Turkiy akademiya va Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi kabi tuzilmalar madaniy almashinuvlarni rag'batlantirish va turkiy tillarni targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega¹¹. Turkiyalik tadqiqotchi Ugur Matich yozganidek, “TDT atrofida reallikdan uzoqlashmagan holda amalga oshirilayotgan siyosat bugungi sharoitda utopik ko'rinadigan “Adriatikadan Xitoy devorigacha Turk dunyosi”, “Qizil yarim oy” yoki “Turon birligi” emas, balki “tilda, fikrda va ishda birlik” g'oyasini amalga oshirish

⁸ Turkiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligining 30 yilligi nishonlanmoqda, 04 Mart 2022. <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrsayadan/turkiya-va-ozbekiston-ortasida-diplomatik-alloqalar-ornatilganligining-30-yill/62220d8101a30a2b04588d53>

⁹ Real GDP growth, 2025, https://www.imf.org/external/datamapper/NGDP_RPCH@WEO/OEMDC/ADVEC/WEOWORLD

¹⁰ Turkiy Davlatlar Tashkiloti: mintaqaviy iqtisodiyotni konstruktiv rivojlantirish omillari, 27 November 2023, <https://turkic.world/uz/articles/politics/174315>

¹¹ Aidarbek Amirbek, Almasbek Anuarbekuly, and Kanat Makhanov, Turkic Speaking Countries' Integration: Its Historical Development and Institutionalization, ANKASAM: Bölgesel Araştırmalar Dergisi 1, no.3, 2017: 164-204.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

bo'yicha kun tartibi yaratilmoqda"¹². TDT qandaydir geosiyosiy ambitsiyalarga ega bo'lmaslik kerak. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasining jo'g'rofiy va tarixiy jihatlarini inobatga olgan holda, mintaqaga qo'shni bo'lgan yetakchi davlatlarni xavotirlariga sabab bo'luvchi harakatlardan yiroq bo'lish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, TDT doirasida avvalo iqtisodiy, moliyaviy, logistika, texnologiya va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kuchaytirish juda ahamiyatli hisoblanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ma'lumki, qadim turkiy zamin ming yillar davomida Sharq va G'arbni tutashtirib, jahon sivilizatsiyalarini bir-biriga yaqinlashtirib, dunyo madaniyatlarini boyitib kelgan. Biz Turkiy dunyo buyuk tarixining yorqin sahifalari ulug' ajdodlarimiz tomonidan birgalikda yaratilgani bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ana shunday bebaho merosni saqlab qolish, uni chuqur o'rganib, kelgusi avlodlarimizga bezavol yetkazish barchamiz uchun eng asosiy vazifadir"¹³.

O'zbekiston va Turkiya transport-kommunikatsiya sohasida hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdor. Bu borada Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya temiryo'llarini Turkiya transport tarmog'i bilan bog'laydigan Navoiy-Turkmanboshi-Boku-Tbilisi-Kars temiryo'l yo'lagi O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Turkiyaning Mersin porti orqali bu temiryo'l O'zbekistonga O'rta Yer dengiziga chiqish imkonini beradi. Ushbu transport yo'lagining tranzit salohiyatini oshirish maqsadida bugun tomonlar o'rtasida bojxona-soliq siyosatini muvofiqlashtirish va bojxona jarayonini soddalashtirish masalalari ustida ish olib borilmoqda. O'rta koridor dep nomlanayotgan ushbu temiryo'l loyihasi Sharq bilan G'arbni bog'lash orqali O'zbekistonni dengizlarga va dunyo bozorlariga tez va xavfsiz chiqish imkoniyatlarini oshiradi. 2024-yil 6-iyun kuni Shavkat Mirziyoyev va Rejeb Toyyib Erdog'an raisligida O'zbekiston-Turkiya oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishida tomonlar "Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi ikki mamlakatning transport-logistika salohiyatini oshirish, shu jumladan, O'rta koridor

¹² Uğur Matıç (2022). Türk Devletleri Teşkilatı'nın Jeopolitik İmkân ve Sınırlılıkları. Uluslararası Türk Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu 2-3 Aralık 2022 İzmir. Bildiri Kitabı, p.458.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning TDT Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishidagi nutqi, 11.11.2022, <https://review.uz/post/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoyeva-na-zasedanii-soveta-glav-gosudarstv-otg>

imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir”, dep ta’kidlaganligi¹⁴ o‘zaro savdo hajmini 10 mlrd. dollarga chiqarishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar / Выводы и рекомендации / Conclusion and recommendations: O‘zbekiston-Turkiya munosabatlari strategik darajaga ko‘tarilgan bo‘lib, strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun uch marotaba oliy darajadagi uchrashuvlar bo‘lib o‘tganligi va unda o‘zari munosabatlarni yanada kengaytirish, tarmoqlar va sohalar, viloyatlar va hududlar kesimida iqtisodiy, madaniy, texnologik, logistik hamkorlikni o‘sish sur’atlarining barqarorligini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda. Ikki mamlakatning so‘ngi paytlardagi yaqin hamkorlik va mushtarak yondashuvlarini takamillashib borayotganligi hali erishish mumkin bo‘lgan yutuqlarni yo‘llarini ochishda xizmat qilishi mumkin. Bu uchun o‘zaro tushunish, manfaatdorlik va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. O‘zaro munosabatlar tarixidagi ziddiyatlarga qaramay ma’lum ma’noda hamkorlikni saqlab qolish va yana qayta jonlantirish tashabbuslarini saqlanib qolganligi o‘zbek-turk munosabatlarni uzoq muddatli ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar / Использованная литература / References:

1. Aidarbek Amirbek, Almasbek Anuarbekuly, and Kanat Makhanov, Turkic Speaking Countries’ Integration: Its Historical Development and Institutionalization, ANKASAM: Bölgesel Araştırmalar Dergisi 1, no.3, 2017: 164-204.

2. Görkem Dirik, “From Hostility to Fraternity: Turkish-Uzbek Relations”, Daily Sabah, 21 June 2019. <https://www.dailysabah.com/op-ed/2019/06/21/from-hostility-to-fraternity-turkish-uzbek-relations>

3. Obid Hakimov, O‘zbekiston – Turkiya: Tarix va islohotlar mushtarakligi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 63 (585), 2022-yil 30-mart.

4. Real GDP growth, 2025, https://www.imf.org/external/datamapper/NGDP_RPCH@WEO/OEMDC/ADVEC/WEOORLD

5. Tolipov F. Uzbekistan-Turkey: Pending the Outcomes of Strategic Relationships. CABAR.asia.2020. <https://cabar.asia/en/uzbekistan-has-opened-up-to-the-world-has-the-country-been-closed>

¹⁴ O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida 10 mlrd dollarlik investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi, 2024-yil, 6-iyun, <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/06/uzbekistan-turkey/>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 05. May 2025

6. Turkiy Davlatlar Tashkiloti: mintaqaviy iqtisodiyotni konstruktiv rivojlantirish omillari, 27 November 2023, <https://turkic.world/uz/articles/politics/174315>

7. Turkiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligining 30 yilligi nishonlanmoqda, 04 Mart 2022. <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/turkiya-va-ozbekiston-ortasida-diplomatik-alokalar-ornatilganligining-30-yill/62220d8101a30a2b04588d53>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning TDT Davlat rahbarlari kengashi yig'ilishidagi nutqi, 11.11.2022, <https://review.uz/uz/post/vstuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoyeva-na-zasedanii-soveta-glav-gosudarstv-otg>

9. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida 10 mlrd dollarlik investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi, 2024-yil, 6-iyun, <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/06/uzbekistan-turkey/>

10. Özbekistan – Taşkent Program Koordinasyon Ofisi, <https://tika.gov.tr/office/ozbekistan-taskent-program-koordinasyon-ofisi/> (Ma'lumotga ulanish: 06.05.2025)

11. Şimşek N. & Kurt A.S. Evaluation of the Economic Relations between Turkey and Uzbekistan. PERCEPTIONS, Spring-Summer 2021 Volume XXVI Number 1, p.135.

12. Uğur Matıç (2022). Türk Devletleri Teşkilatı'nın Jeopolitik İmkân ve Sınırlılıkları. Uluslararası Türk Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu 2-3 Aralık 2022 İzmir. Bildiri Kitabı, p.458.

13. Аватков В.В, Внешнеполитический курс Турецкой Республики в рамках современной системы международных отношений. Дисс. док. пол. наук. – Москва, 2021. – С. 132.

14. Холикулов Р. Тўракулов В.Ўзбекистон ва Туркия ўртасидаги савдо иқтисодий ва маданий алоқалар. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 1 Issue 3. 2020.